

YOSH AVLOD TARBIYASIDA MEHNAT TARBIYASINING O'RNI

G'aniyeva Sevinch Sherali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Bolalarda mehnat orqali tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishini tarbiyalanadi. Mehnat tarbiyasida bolalalarda mas'uliyat, mustaqillik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, tashabbuskorlik, ijodkorlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, tartiblilik va tozalik ko'nikmalari rivojlanadi.

Kalit so'zlar: mehnat tarbiyasi, bolalar, g'amxo'rlik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizom, tarbiya.

РОЛЬ ТРУДОВОГО ВОСПИТАНИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. Трудовое воспитание — важный вид воспитания, один из необходимых условий формирования личности, педагогический процесс. Через труд у детей воспитывается любовь к природе, бережное и заботливое отношение к ней. В процессе трудового воспитания у детей развиваются чувство ответственности, самостоятельность, трудолюбие, терпение, инициативность, творческие способности, умение работать в коллективе, аккуратность и чистоплотность.

Ключевые слова: трудовое воспитание, дети, забота, трудолюбие, ответственность, дисциплина, воспитание.

THE ROLE OF LABOR EDUCATION IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Annotation. Labor education is an important type of upbringing and one of the essential conditions for personality formation—a pedagogical process. Through work, children develop love for nature, careful and caring attitudes toward it. In the process of labor education, children cultivate responsibility, independence, diligence, patience, initiative, creativity, teamwork skills, discipline, and neatness.

Keywords: *labor education, children, care, diligence, responsibility, discipline, upbringing.*

Kirish. Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mehnat tarbiyasi bolaning mas'uliyatli, mehnatsevar, ijodkor qilib tarbiyalashda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyos. Mehnat bolalarning jismoniy rivojlanishida zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Mehnatda bola o'zining ishlash, harakat qilish ehtiyojlarini qondiradi, harakatlarning aniq, uyg'un bo'lishini ta'minlaydi. Mehnat jarayonida bola organizimining umumiy hayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi. Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini qo'llashni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mehnat tarbiyasini amalga oshirish yo'nalishlari quydagilar:

1. Bolalarni o'zini mehnatga o'rgatish.
2. Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Tabiatda mehnatni tashkil etish shakllari. Tabiatdagi bolalar mehnati individual topshiriqlar, jamoaviy mehnat va navbatchilik shaklida tashkil etiladi.

Shaxsiy topshiriqlar bolalar bog'chasining barcha yosh guruhlarida qo'llaniladi, ammo mehnat faoliyati endigina o'zlashtirilayotgan yosh guruhlarda alohida ahamiyatga ega. Shaxsiy shaklda bola butun mehnat jarayonini o'zi bajaradi. Bu tarbiyachiga bolaga mehnat harakatlarini o'rgatish, unga mehnat

operatsiyalarining bajarilishini nazorat qilishda yordam berish, faoliyatni baholash va individual xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Tabiatdagi jamoaviy mehnat guruhning barcha bolalarining mehnat qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Jamoaviy ish bolalarni birlashtiradi, mehnatning umumiy maqsadini qabul qilish, muzokaralar olib borish, harakatlarni birgalikda rejalashtirish, ularni muvofiqlashtirish, bir-biriga yordam berish, ishni baholash qobiliyatini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jalb qilinadigan mehnat turlari:

- 1.O'z-o'ziga mehnat
- 2.Xo'jalik maishiy mehnat
- 3.Tabiat quchog'iga mehnat
- 4.Qo'l mehnati

O'z-o'ziga xizmat qilish. O'z-o'ziga bu mehnatning bir turi bo'lib unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishiga, yuvinishiga, kiyinish va yechinishga, o'yinchoqlarini yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. Bu jarayonda bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish sifatlari shakllanadi.

Tabiat quchog'idagi mehnat. Tabiatdagi mehnat bolalarni har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tabiatga ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalash vositasi mehnat hisoblanadi. Tabiat quchog'ida mehnatning avfzaligi shundaki bolalar tabiatdagi ilk tasirotlarni egallaydi, o'simliklarni ekishni ularni parvarish qilish konikmalari rivojlanadi.

Qo'l mehnati. Qo'l mehnati asosan bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan turli sodda urug' uchun xaltachalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar kabi shunga o'xshash narsalarni tayyorlash bolalarning qo'l mehnati hisoblanadi.

Xo'jalik-maishiy mehnat. Xo'jalik-maishiy mehnat — bu bolalarni o'z atrofi va yashash joyini ozoda tutish, buyumlarni ehtiyot qilish, tartib saqlash kabi oddiy ishlarni bajarishga o'rgatishdir. Masalan o'yinchoqlarini yig'ib qo'yish, stol ustiga likopchalarni qo'yish kabi ishlarni misol qilsak bo'ladi.

Bolalar mehnating muhim belgisi uning ma'lum maqsadga qaratilganidir. Kichik yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga oid harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin. Shundagina mehnat tarbiyasi o'z samaradorligi ko'rsatadi.

Xulosa. Mehnat inson hayotini mazmunli qiluvchi vosita. Mehnat nafaqat bolalarga balki barcha uchun zarur bo'lgan insonni har tomonlama rivojlantiruvchi, mas'uliyatli, sabr-toqatli, ijodkor, estetik didni shakillantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ismoil al-Buxoriy kabi bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari orqali ulkan yutuqlarga erishgan. Shu boisdan jahonning barcha xalqlari shuningdek o'zbek xalqlari ham mehnatni yuqori darajaga qo'yadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.T.Tosheva. "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" darslik 2022-yil.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik 2019-yil.
3. N.M.Quchqorova, I.R.Avazmetova, D.U.Ikramova. "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish"darslik 2023-yil
4. G.E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo'jayeva "Tabiat bilan tanishtirish" o'quv qo'llanma 2020-yil
5. M.J.Madaminova, H.Nurmuhammadova, M.To'lqinboyeva "Mehnat tarbiyasi va uning inson kamolotidagi o'rni" maqola
6. Xasanboyeva O.U «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.
- 7.Potapova T.V. 4-7 yoshli bolalar bilan kasblar to'g'risida suhbatlar / T.V., Potapova.-M.: SC Sphere, 2008.- 64s
- 8.Z.K.Ismailova Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar T."Fan",2001-yil